

**Xorazm viloyati Urganch shahar Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Ro'za Ganjayeva**

Annatsiya: Mazkur maqola Hazrat Alisher Navoiyning tarbiya mavzusidagi g'azallariga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida Navoiyning tarbiya borasidagi fikr-mulohazalari tahlil qilingan. Navoiyning pandnoma ruhida yozilgan g'azallari insonni yuksak komillikka yetaklashi haqidagi fikrlar e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: *Pand-nasihati, tarbiya, komillik, g'azallar, poklik, nasihatlar, yoshlik, ardoqlash, nafs.*

Inson dunyoga kelib kamolotga yetishida tarbiyaning ahamiyati juda kattadir. Xususan, mumtoz adabiyotimizda ham bu masalaga alohida urg'u beriladi. Bu jihatdan, ayniqsa, mutasavvuf shoirimiz Hazrat Alisher Navoiy asarlari ham inson tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. Bilamizki, Alisher Navoiy kulliyotining aksariyat qismi g'azallardan iborat. Shoir g'azallarida bugungi kun o'quvchisini tarbiyalashga yo'naltirilgan ustuvor yo'nalishlar mavjud. Xalqimizda azal-azaldan so'zlashga, to'g'ri gapirishga qattiq e'tibor qaratilgan. Lekin ayrim yoshlarimiz tomonidan quruq va bachkana so'zlar ishlatilib, odamlarning ko'nglini xira qilmoqda. Xo'sh, bunga kim aybdor? Oilami? Maktabmi? yoki ijtimoiy muhit? Nazarimizda, bunga barchamiz birdek dahldormiz. Alisher Navoiy ham asarlarining ko'plab o'rinlarida shu jihatga e'tibor qaratgan. Xususan, quyidagi baytini e'tirof qilishimiz mumkin:

Pok lafz ayturg'a og'zing pok qilkim hayfdur

Yaxshi so'z borinda surgay nuktayi mazmum og'iz.

Mazkur baytda Navoiy "...pok so'z aytishga og'zingni pokla. Yaxshi, chiroyli so'z turganda yomon, iflos so'zni og'izga olish hayfdur." degan fikrlarni ilgari surgan. Bayt mazmunida kelib chiqib shuni xulosa qilish kerakki, nafaqat yosh avlod, o'quvchilar balki kattalar ham so'z so'zlashga e'tiborli bo'lib yoshlarga ibrat bo'lishlari lozim. Chunki har qanday so'z inson tarbiyasi ko'zgidir. Alisher Navoiy bizni har doim yaxshilik, mehr-muruvvat ulashishga, odamlarning og'irini yengil qilishga undagan. Jumladan, shoirning "Aylagay" g'azalida ham yuqoridagi fikrlarimizning mazmuni ilgari suriladi:

Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Bu baytimiz ayni bugungi kun uchun jamiyatimizda "Inson qadri" uchun qilinayotgan amaliy ishlarning ifodasidek, go'yo.

Do'stlikni qadrlashni ulug'lab, dushmanlik qilib el ko'nglini og'ritganlarni qoralagan va ularga nasihat qilgan. Shoirning quyidagi bayti yuqoridagi fikrlarimizga misol bo'la oladi:

Erur chun olam ichra joh foniy, yaxshi ot boqiy,

Bas el komin ravon ayla o'zingni komrom ayla.

Shoir misralari orqali "...bu olamda amal, martaba foniy, yaxshi nom esa boqiy. Shunday ekan, o'zingni katta ishlarga qodir bilsang, elning og'irini yengil qil, maqsadga yetishishiga ko'maklash." degan ibratli o'gitlarni bergan. Xalqimizda mana shu baytga mos maqol ham bor: "Yaxshidan bog' qoladi, yomondan esa dog'." Insoniyat yaralibdiki, har doim ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash boradi. Bu kurashda esa har doim ezgulik g'alaba qilgan. Shunday ekan, Alloh in'om qilgan

umrimizni yaxshi va chiroyli soʻzlar bilan bezashimiz, odamlarga yaxshilik qilib umr daftarimizda ezgu izlar qoldirishimiz kerak.

Alisher Navoiy ijodini oʻrganar ekanmiz, u shu qadar tubsiz bir ummonki, ichiga shoʻngʻigan inson uning yangi qirralarini kashf qilib boraveradi. Shoir gʻazallari yoki dostonlarini oʻqir ekanmiz, ularning barchasi zamirida ezgulik deb atalmish umuminsoniy fazilat qaror topganiga guvoh boʻlamiz. Shoir gʻazallarida komil inson gʻoyasi ilgari surilgani barchamizga ayon. Navoiy komillikka erishishda, avvalo, oʻzlikni tarbiya qilmoq zarur ekanligini taʼkidlaydi. U insonga berilgan umr deb atalmish aziz neʼmatni har lahza qadrlamoqni, nafs va kibr kabi illatlardan yiroq yurib faqat ezgulik ulashmoqni eʼtirof etadi. Ulugʻ shoirning quyidagi ikki baytini yuqoridagi fikrlarimizga dalil sifatida koʻrishimiz mumkin:

*Bu damni orif esang yaxshi tutki, johil ishi
Yetishmagangavu oʻtganga qiylu qol oʻgʻay. hamda,
**** * * * * **

*Nafs oʻlsa tobiʼing kishisen, yoʻqsa boʻlmagʻung
Hargiz kishi, boʻlub sanga yuz ming kishi tabaʼ.*

Shuningdek, mazkur misralar orqali shoir agar orif inson darajasiga yetishmoqni istasang, johillikni oʻzingdan nari tut, yani oʻzingga oʻgay bil deydi. Oriflikka yetishgan inson shundayki butun vujudi ila Allohga bogʻlanadi. Oʻzidagi bor qora illatlarni tarbiyalab, kishanlab nafsiga gʻolib chiqadi. Keyingi baytda esa nafs insonni hamisha zalolatga, zulmatga yetaklashini aytadi. Bu oʻrinda bir nafsning ishini yetmish ming shayton qila olmasligi haqida hikmatli nasihatlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Muxtasar qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodini oʻrganar ekanmiz, undagi ezgulik va maʼrifatni yosh avlod qalbiga joylamogʻimiz kerak. Tarbiya mavzusi bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biridir. Hozirgi kunda oʻsib kelayotgan yosh avlodni yuksak darajada tarbiyalash va kamolotga yetkazish uchun ularni yoshlikdanoq Navoiy ijodi bilan tanishtirish lozim. Navoiy falsafasini chuqur oʻrgangan inson hayot haqiqati aslida nimadan iborat ekanligini anglab yetadi. Ayniqsa, shoirning tarbiyaviy ruhda yozilgan gʻazallari va pand-nasihatlari bugungi kun oʻquvchisi uchun juda ahamiyatlidir. Muhimligi shundaki, tarbiya inson maʼnaviy olamining koʻzgidir, chirogʻidir. Bu chiroqning qay darajada porlashi inson qalbining pokligi bilan bogʻliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Shohbaytlar I. Tamaddun nashriyoti, 2016. 32-bet
2. Nosiriddin Rabgʻuziy. Toshkent. "Yozuvchi" 1991-yil